

IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Raimberdiyev Asqarjon Asrorovich

Qarshi davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash pedagogik muammo sifati bo'yicha takliflar keltirilgan. Bundan tashqari, istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida mamlakatimizda izchil chora-tadbirlar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: iqtidor, iqtidorlilik, iqtidorli bolalar, iste'dodli yoshlar, qobiliyat, ijobiy qobiliyat.

РАБОТА С ОДАРЕННЫМИ УЧЕНИКАМИ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация: представлены предложения по качеству педагогической проблемы работы с одаренными учащимися. Кроме того, в нашей стране продуманы последовательные меры по поддержке перспективной молодежи, созданию дополнительных условий для реализации ее талантов, эффективной организации научно-исследовательской и инновационной деятельности.

Ключевые слова: одаренность, одаренность, одаренные дети, одаренная молодежь, одаренность, позитивные способности.

WORKING WITH TALENTED STUDENTS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM

Abstract: suggestions are given on the quality of the pedagogical problem of working with gifted students. In addition, consistent measures were taken in our country to support promising young people, to realize their talents, and to create additional conditions for effective scientific research and innovation activities.

Key words: talent, giftedness, gifted children, talented youth, ability, positive ability.

Bugungi kunda istiqbolli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali yo'lga qo'yish

uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish borasida mamlakatimizda izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodning ilm egallashga bo‘lgan ishtiyoqi va intellektual salohiyatini oshirish, shuningdek, xalqaro maydonda mamlakatimizning nufuzini yanada yuksaltirish uchun iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4306-son qarorida “...yoshlarni amalga oshirilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish, ilm-fanni o‘zlashtirishga bo‘lgan rag‘batini oshirish, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik faoliyatiga keng jalb qilish, jahon miqyosida Vatanimiz dovrug‘ini keng taratgan ajdodlarga munosib avlodni tarbiyalash” vazifasi qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonining “Xalq ta’limi tizimining asosiy maqsad va rivojlanish yo‘nalishlari” deb nomlangan 3-bobida ham uzoq istiqboldagi maqsadli vazifalardan kelib chiqib, iqtidorli bolalar va iste’dodli yoshlar bilan aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni amalga oshirish tizimini yaratish orqali xalq ta’limi tizimini rivojlantirish vazifasi ustuvor etib belgilandi. Shundan kelib chiqib, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ular bilan ishlash va rivojlantirish borasida quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim.

O‘quvchilarning iqtidorini aniqlash, ular bilan ishlash va rivojlantirish, ularda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga doir kasbiy, ijtimoiy, maxsus, metodik tayyorgarlikka ega bo‘lish;

O‘quvchilarning iqtidorini aniqlash, ular bilan ishlash va rivojlantirish, hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga doir metodlarni qo‘llash metodikasini bilishi va shu asosda darsni loyihalash;

XXI asr o‘quvchisida qaysi hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishni bilish;

O‘quvchilarda shakllangan hayotiy ko‘nikmalarni va iqtidorini baholay olish;

“Learning by doing” – bajarish orqali o‘rganish texnologiyasini bilish va unga amal qilish.

Iqtidor so‘ziga nazariy jihatdan ko‘plab ta’riflar berilgan. Lug‘aviy jihatdan “Iqtidor” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, kuch-quvvat, qudrat, qodirlik, qobiliyat, holat kabi ma’nolarni anglatadi.

Iqtidor – bu inson psixikasining butun umr davomida tizimli rivojlanuvchi sifati bo‘lib, insonning boshqa odamlarga nisbatan bir yoki bir necha sohada yuqori natijalarga erishish imkoniga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Rus psixologlari (Larionova, Shadrikova va boshqalar) “iqtidor” so‘ziga quyidagicha ta’rifni berishadi: Iqtidorli bola - bu ajoyib yutuqlar bilan ajralib turadigan yoki ba’zi bir faoliyat turlarida bunday yutuqlarning ichki shart-sharoitlariga ega bo‘lgan bola.

AQShning iqtidorli bolalar milliy assotsiatsiyasi iqtidorli bolalarni quyidagicha ta’riflaydi: Iqtidorli bolalar - qobiliyatlari me’yordan ancha yuqori bo‘lganlardir.

Mutaxassislar ta’kidicha, iqtidor asosida umumiy intellektual va insonning bilish imkoniyatlarini belgilaydigan, tabiat tomonidan in’om etilgan qobiliyatlar, biror bir faoliyatda (masalan, ta’lim, ijodiy, kasbiy, ilmiy) muvaffaqiyatga erishishni ta’minlaydigan maxsus qobiliyatlar yotadi.

Iqtidorning erta namoyon bo‘lishi ikki yoshdan olti yoshgacha kuzatiladi. Bunday bolalar ikki-uch yoshdan o‘qishga intiladilar, uch-to‘rt yoshda o‘qishni va sanashni biladilar, besh-olti yoshda so‘zlarni va uncha katta bo‘lmagan jummalarni yoza oladilar. Maktabgacha yosh davrida iqtidorli bolalar boshqalardan intellektning rivojlanish darajasi bilan ajralib turadilar. O‘zlarining juda faolligi, ko‘plab savol berishlari, qiziquvchanligi, kattalardan oladigan ma’lumotni oson eslab qolishi va qayta aytib bera olishi bilan birga, boy tasavvurga egadirlar.

Iqtidorli bolalar ko‘p hollarda turli hisob-kitoblarga qiziqadilar, she’r yoki ertaklar to‘qiydilar, musiqa asboblarini chaladilar, shaxmat o‘ynaydilar, rasm chizadilar, qo‘shiq aytadilar va raqsga tushadilar. Yetti yoshdan o‘n yoshgacha bo‘lgan davrda bolalar ko‘p hollarda kolleksiya yig‘ishga (markalar, medallar, sevimli mul’tfilm va kino qahramonlarining rasmlari va xok...), qog‘oz, yog‘och va boshqa

materiallardan turli predmetlarning loyihalarini yasashga qiziqadilar. Iqtidorli bolalar 3 yoshdan 5 yoshgacha barcha noma'lum bo'lgan narsalarga va yangiliklarga nisbatan mustaqil ravishda javob axtarishda faollik ko'rsatib, kattalarga turli savollar beradilar. Bu savollarga berilgan javoblar orqali atrof olamni, voqea-hodisalarning sabab va oqibatlarining bog'liqligini anglaydilar, shaxsiy hatti-harakatlarini ongli ravishda boshqara oladilar.

Umumiy qobiliyat egalari yuqori intellektual imkoniyatlarga ega bo'lib, muammoning yoki muayyan bir masalaning yechimini tezda topishi, faoliyatiga ijodiy yondashishi bilan ajralib turadi.

Maxsus qobiliyat egalari esa muayyan bir aniq (masalan, matematika, musiqa, rasm chizish, shaxmat o'ynash, sport) faoliyat turiga qobiliyati bo'lgan va mana shu faoliyat bilan shug'ullanishni afzal ko'radilar. Iqtidorli bolalar bu umumiy va maxsus qobiliyatlarni o'zida mujassam etgan bolalardir.

Ular boshqa bolalardan quyidagi belgilari bilan ajralib turadilar:

- qiziquvchanligi; – doimo turli savollarga javob axtarishi;
- nutqi, tafakkuri, xotirasining tez rivojlanishi;
- erta yoshdanoq musiqa, rasm chizish, kitob o'qish, matematikaga qiziqishi;
- yuqori darajadagi bilish faolligi va o'quv faoliyati;
- masalalarning yechimini topishda maqsadga intiluvchanlik va originallik;
- tafakkurning unumdorligi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, maktablarda o'qituvchilarning monologlari 90% ni tashkil qilib, o'quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga, o'qituvchilar topshiriqlarning mazmuniga, savolning mohiyati va shakliga, ularning dars tizimidagi o'rniga ahamiyat bermaydilar.

Ko'p hollarda ta'limiy vazifalar faollashtirilmaydigan bir xil javoblarga qaratilgan topshiriqlardan iborat. Masalan: Munajjim bobomiz kim? (O'qish darslarida), Qanday? Qanaqa? so'rog'iga javob bo'lgan so'z turkumini aniqlang. (Ona tili darslarida), 50 ning 5 ga ko'paytmasidan qanday son hosil bo'ladi? (Matematika darslarida), Qanday yovvoyi hayvonlarini bilasiz? Sanab bering (Tabiat darslarida). Bu kabi o'quv topshiriqlari savol-javob o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, turli bilim

darajasidagi (yuqori - iqtidorli, o'rta, past) o'quvchilarning o'quv-bilish darajasi e'tiborga olinmaydi.

Xulosa qilib aytganda, bir tomonlama yondashuv asosida tuzilgan bu kabi topshiriqlar rivojlantiruvchi va faollashtiruvchi ahamiyatga ega emas. Iqtidorli o'quvchilar uchun tuzilgan topshiriqlar turli yondashuv asosida – rivojlantiruvchi, faollashtiruvchi, integratsion, ma'lumot beruvchi, izlantiruvchi, motivatsiya beruvchi kabi ta'limiy maqsadlar asosida tuzilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. A.A.Raimberdiyev. Boshlang'ich ta'lim jarayonida iqtidorlilikni tashxislash va rivojlantirish tizimini takomillashtirish. – Nukus, 2023
2. A.A.Raimberdiyev. Shaxs iqtidori va uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni muammosining talqini. - Qarshi, 2022
3. A.A.Raimberdiyev. Elimination Of Social And Pedagogical Problems In Working With Talented Students. 2022
4. A.A.Раимбердиев. БОШЛАНГИЧ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ИҚТИДОРЛИ ҲЎҚУВЧИЛАР БИЛАН ОЛИБ БОРИЛАДИГАН ИШ УСУЛЛАРИ. Қарши, 2021.